



## MECHANISMS FOR MANAGING CORRUPTION RISKS IN PLEDGE, SURETYSHIP AND OTHER METHODS OF SECURING THE PERFORMANCE OF OBLIGATIONS

*Doniyor Bakhtiyorovich Rakhimov*

*Doctor of Science (DSc)*

*Acting Professor at the Institute Training for Lawyers  
under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan*

*E-mail: [Mrdoniyor72@gmail.com](mailto:Mrdoniyor72@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** pledge, suretyship, bank guarantee, securing obligations, corruption risks, compliance, conflict of interest, civil law, collateral register, digitalization.

**Received:** 02.07.26

**Accepted:** 03.07.26

**Published:** 04.07.26

**Abstract:** This article examines the civil law aspects of corruption risks arising in pledge, suretyship, bank guarantees and other methods of securing obligations. The study applies comparative legal and analytical methods to examine the legislation of Uzbekistan, Germany, the United States, Singapore and Kazakhstan, together with judicial practice. The research identifies collateral valuation manipulation, conflicts of interest, affiliated relationships, weak internal control mechanisms and insufficient digital monitoring as the principal sources of corruption risks. Based on the findings, legislative proposals are developed to introduce mandatory corruption risk assessment, strengthen compliance mechanisms, improve disclosure of affiliated relationships and enhance electronic collateral registration systems.

### GAROV, KAFILLIK VA BOSHQA TA'MINOT USULLARIDA KORRUPTSIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

*Doniyor Baxtiyorovich Raximov*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti professori v.b.,*

*yuridik fanlari doktori (DSc)*

*E-mail: [Mrdoniyor72@gmail.com](mailto:Mrdoniyor72@gmail.com)*

*Toshkent, O'zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit soʻzlar:** garov, kafillik, kafolat, majburiyatlarni taʼminlash, korrupsiyaviy risklar, komplayens nazorati, manfaatlar toʻqnashuvi, garov reyestri, fuqarolik huquqi, elektron monitoring.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada majburiyatlarning bajarilishini taʼminlash usullari hisoblangan garov, kafillik, kafolat hamda boshqa taʼminot institutlarida yuzaga keladigan korrupsiyaviy risklarning fuqarolik-huquqiy tabiati tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligi, sud amaliyoti hamda Germaniya, AQSh, Singapur va Qozogʻiston qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilindi. Garov predmetini baholashdagi manipulyatsiyalar, affillangan shaxslar ishtiroki, manfaatlar toʻqnashuvi, ichki nazorat tizimlarining zaifligi va elektron monitoring mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi korrupsiyaviy risklarning asosiy manbalari sifatida asoslab berildi. Tadqiqot natijasida taʼminot bitimlari boʻyicha korrupsiyaviy risklarni majburiy baholash, affillanganlikni oshkor etish, komplayens nazoratini kuchaytirish hamda elektron garov reyestrlarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy takliflar ishlab chiqildi.

---

**МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫМИ РИСКАМИ ПРИ ЗАЛОГЕ, ПОРУЧИТЕЛЬСТВЕ И ИНЫХ СПОСОБАХ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИСПОЛНЕНИЯ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ**

---

*Данияр Бахтиярович Рахимов*

*Доктор юридических наук (DSc)*

*и.о. профессора Института переподготовки и*

*повышения квалификации юридических кадров*

*при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,*

*E-mail: [Mrdonyor72@gmail.com](mailto:Mrdonyor72@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** залог, поручительство, банковская гарантия, обеспечение исполнения обязательств, коррупционные риски, конфликт интересов, комплаенс, гражданское право, реестр залога.

**Аннотация:** В статье исследуется гражданско-правовая природа коррупционных рисков, возникающих при применении залога, поручительства, банковской гарантии и иных способов обеспечения исполнения обязательств. На основе сравнительно-правового анализа законодательства Республики Узбекистан, Германии, США, Сингапура и Казахстана, а также судебной практики выявлены основные коррупционные риски,

связанные с оценкой предмета залога, конфликтом интересов, аффилированностью сторон и недостаточной эффективностью внутреннего контроля. Предлагаются меры по совершенствованию гражданского законодательства посредством внедрения обязательной оценки коррупционных рисков, усиления комплаенс-контроля и цифровизации процедур обеспечения исполнения обязательств.

---

**Kirish.** So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik muomalasi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash institutlari, xususan garov, kafillik, kafolat va boshqa ta'minot usullari fuqarolik muomalasining ishonchliligini ta'minlovchi muhim huquqiy vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, yirik kredit operatsiyalarining ko'payishi hamda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining kengayishi ushbu institutlarda korrupsiyaviy risklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa garov predmetini baholash, kafillarni tanlash, bank kafolatlarini rasmiylashtirish, affillangan shaxslarning ishtirokini yashirish hamda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar kreditorlarning qonuniy manfaatlariga, investorlar ishonchiga hamda fuqarolik muomalasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda davlat boshqaruvi, davlat xaridlari va korporativ boshqaruv sohalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash institutlarida korrupsiyaviy risklarni boshqarishning fuqarolik-huquqiy mexanizmlari yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan.

Mavzuning dolzarbligi aynan shundan iboratki, garov, kafillik va boshqa ta'minot institutlarida korrupsiyaviy risklarni aniqlash, baholash va oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish nafaqat kreditorlarning huquqlarini himoya qilishga, balki investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish, davlat aktivlarini muhofaza qilish hamda fuqarolik muomalasida shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullarida yuzaga keladigan korrupsiyaviy risklarni fuqarolik-huquqiy jihatdan tahlil qilish, ularning asosiy sabablarini aniqlash hamda milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda garov, kafillik va kafolat institutlari korrupsiyaviy risklarni boshqarish nuqtai nazaridan kompleks ravishda tahlil qilinib, ta'minot bitimlarida korrupsiyaviy risklarni majburiy baholash, affillanganlikni oshkor etish, komplayens nazoratini kuchaytirish hamda elektron monitoring tizimlarini joriy etishga qaratilgan fuqarolik-huquqiy mexanizmlar taklif etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash institutlari fuqarolik huquqining klassik institutlaridan biri bo'lib, ular kreditor manfaatlarini himoya qilish, fuqarolik muomalasi barqarorligini ta'minlash hamda shartnoma intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu institutlarning nazariy va amaliy jihatlari milliy hamda xorijiy huquqshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Biroq, ularni korrupsiyaviy risklarni boshqarish nuqtai nazaridan o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar yetarli emas.

Rossiyalik olim V.V.Vitryanskiy majburiyatlarni ta'minlash usullarini kreditorning mulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi mustaqil fuqarolik-huquqiy mexanizm sifatida baholaydi. Olimning fikricha, garov institutining samaradorligi uning oshkoraligi, ishonchliligi va ro'yxatga olish tizimining mukammalligiga bevosita bog'liq. Garov to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va o'z vaqtida e'lon qilinmasligi kreditorlar tengligi prinsipining buzilishiga hamda fuqarolik muomalasida ishonchsizlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

E.A.Suxanov garov va kafillik institutlarini iqtisodiy muomaladagi tavakkalchiliklarni kamaytiruvchi fuqarolik-huquqiy kafolatlar tizimi sifatida tavsiflaydi. Uning ta'kidlashicha, kafillikning huquqiy samaradorligi, avvalo, kafilning real moliyaviy barqarorligi bilan belgilanadi. Shu sababli kafillik rasmiylashtirilishidan oldin kafilning moliyaviy holatini chuqur tekshirish majburiy bo'lishi lozim.

Amerikalik olim Grant Gilmore garov huquqi nazariyasini rivojlantirgan olimlardan biri sifatida elektron garov reyestrlarini kredit munosabatlarida shaffoflikni ta'minlovchi asosiy vosita deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, barcha ta'minot huquqlarining yagona elektron bazada ro'yxatga olinishi bir mol-mulkning takroran garovga qo'yilishining oldini oladi, kreditorlarning teng huquqliligini ta'minlaydi hamda korrupsion kelishuvlar sodir etilishi ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

O'zbekistonlik olimlar X.R. Rahmonqulov, O. Okyulov, Sh.N. Ro'zinazarov, N.F.Imomov, D.B.Raximov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullarining fuqarolik-huquqiy tabiati, ularning huquqiy mexanizmlari hamda amaliy qo'llanilishi yuzasidan salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, O. Okyulov garov huquqining iqtisodiy samaradorligi garov predmetining haqiqiy bozor qiymati bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadi. Uning fikricha, garov qiymatini sun'iy

ravishda oshirish yoki pasaytirish kreditor manfaatlariga zarar yetkazishi bilan bir qatorda fuqarolik muomalasi ishonchliligini ham izdan chiqaradi.

N.F. Imomov esa manfaatlar to'qnashuvi institutini korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim elementi sifatida baholab, affillangan shaxslar ishtirokidagi bitimlarda oshkorlik va hisobdorlikni ta'minlash zarurligini asoslaydi. Olimning ta'kidlashicha, manfaatlar to'qnashuvi nafaqat jinoyat yoki ma'muriy huquq doirasida, balki fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ham jiddiy huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Xorijiy davlatlar tajribasi ham mazkur yo'nalishda muhim ahamiyatga ega. Germaniyada ipoteka va ko'chmas mulk garovi davlat yer reestri orqali ro'yxatdan o'tkazilishi huquqiy aniqlik va oshkorlikni ta'minlaydi. AQShda Uniform Commercial Code (UCC) Article 9 doirasida barcha ta'minlash huquqlari elektron tartibda qayd etiladi. Singapurda esa bank kafolatlari, kredit operatsiyalari va davlat ishtirokidagi moliyaviy bitimlarda komplaens nazorati hamda manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish mexanizmlari keng joriy qilingan.

Shu bilan birga, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi garov, kafillik va kafolat institutlarining huquqiy tabiatini yoritishga bag'ishlangan. Ularda korrupsiyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarishning fuqarolik-huquqiy mexanizmlari, shuningdek komplaens nazorati, elektron monitoring va korrupsiyaviy risklarni majburiy baholash masalalari kompleks tarzda tadqiq etilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning o'ziga xos jihati shundan iboratki, unda majburiyatlarni ta'minlash institutlari korrupsiyaga qarshi huquqiy siyosat bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda fuqarolik huquqi nazariyasi, korrupsiyaga qarshi kurashish konsepsiyasi hamda qiyosiy huquqshunoslik yondashuvlari uyg'unlashtirilgan holda ilmiy tadqiqot olib borildi. Tadqiqotning metodologik asosini umumilmiy va maxsus yuridik tadqiqot usullari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy usul yordamida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Garov reyestri to'g'risida", "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunlari Germaniya, AQSh, Singapur va Qozog'iston qonunchiligi bilan taqqoslandi. Mazkur usul milliy qonunchilikning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ilg'or xorijiy tajribani baholash imkonini berdi.

Tizimli-huquqiy tahlil usuli orqali majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash institutlari yagona fuqarolik-huquqiy tizim sifatida o'rganildi. Garov, kafillik, kafolat va boshqa ta'minot

usullarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning korrupsiyaviy risklarni yuzaga keltiruvchi omillari tahlil qilindi.

Formal-yuridik usul asosida amaldagi qonunchilik normalarining mazmuni, ularning amaliy qo'llanilishi va huquqni qo'llash jarayonida uchrayotgan muammolar o'rganildi. Xususan, Fuqarolik kodeksining majburiyatlarni ta'minlashga oid normalari korrupsiyaga qarshi qonunchilik bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi.

Shuningdek, sud amaliyotini tahlil qilish usuli qo'llanilib, garov, kafillik va bank kafolati bilan bog'liq iqtisodiy sud ishlarida uchrayotgan huquqiy muammolar umumlashtirildi. Sud qarorlarida garov predmetini sun'iy baholash, affillangan shaxslar ishtirokini yashirish, manfaatlar to'qnashuvi va ichki nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi bilan bog'liq holatlarga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotda shuningdek, ilmiy manbalarni tahlil qilish, sintez, deduksiya va induksiya usullaridan foydalanildi. Bu esa nazariy qarashlar, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini o'zaro bog'liq holda baholash hamda ilmiy asoslangan xulosalarga kelish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullarida yuzaga keladigan korrupsiyaviy risklar fuqarolik-huquqiy, institutsional hamda amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, garov, kafillik va kafolat institutlari kreditor manfaatlarini himoya qilishning samarali vositalari bo'lishiga qaramay, ularni qo'llash jarayonida korrupsiyaviy xavf tug'diruvchi qator omillar mavjud. Mazkur omillar shartnomaviy munosabatlar ishonchliligini pasaytiradi, fuqarolik muomalasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda investitsiyaviy jozibadorlikni susaytiradi.

Garov munosabatlarida korrupsiyaviy risklarning namoyon bo'lish shakllari. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, majburiyatlarni ta'minlash usullari orasida aynan garov instituti korrupsiyaviy xavf darajasi eng yuqori bo'lgan institutlardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi garov predmetining qiymatini aniqlash, uni davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazish hamda garov huquqini amalga oshirish jarayonlarida inson omilining saqlanib qolayotganidir.

Birinchi muammo garov predmetini baholash bilan bog'liq. Amaliyotda ayrim hollarda garov predmetining haqiqiy bozor qiymatidan asossiz ravishda yuqori yoki past baholanadi. Bunday holat kreditorning moliyaviy tavakkalchiligini oshiradi, qarzdorning moliyaviy holati to'g'risida noto'g'ri tasavvur hosil qiladi hamda manfaatdor shaxslarning noqonuniy manfaat ko'rishiga sharoit yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, aynan baholash jarayoni korrupsiyaviy kelishuvlar yuzaga kelishi ehtimoli eng yuqori bo'lgan bosqich hisoblanadi.

Ikkinchi muammo garov predmetiga oid axborotning to'liq oshkor etilmasligi bilan bog'liq. Garovga qo'yilgan mol-mulk boshqa majburiyatlar bilan yuklanganligi yoki uchinchi shaxslarning huquqlari mavjudligi haqidagi ma'lumotlarning yashirilishi kreditorning huquqiy holatini sezilarli darajada yomonlashtiradi. Natijada bir obyektning bir necha marotaba garovga qo'yilishi yoki kreditorlar o'rtasida ustuvorlik bo'yicha nizolar kelib chiqishi mumkin.

Uchinchi muammo garov reyestrining faoliyati bilan bog'liq. Garchi O'zbekistonda Garov reyestri faoliyat yuritayotgan bo'lsada, ayrim hollarda ma'lumotlarni kechiktirib kiritish, noto'g'ri axborot taqdim etish yoki texnik nazoratning yetarli emasligi korrupsiyaviy xavflarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur holat garov huquqining oshkoraligi prinsipiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchi muammo raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Garov predmetini baholash, monitoring qilish hamda ma'lumotlarni yangilash jarayonlarida avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarining to'liq joriy etilmaganligi inson omili ta'sirini saqlab qolmoqda. Bu esa subyektiv qarorlar qabul qilinishiga va korrupsiyaviy xavflarning kuchayishiga olib keladi.

Kafillik shartnomalarida kuzatilayotgan korrupsiyaviy xavflar. Tadqiqot natijalari kafillik institutida ham bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Eng avvalo, amaliyotda moliyaviy imkoniyati yetarli bo'lmagan shaxslarning kafil sifatida jalb qilinishi uchramoqda. Bunday holatlarda kafillik kreditor uchun real huquqiy kafolat vazifasini bajarmaydi. Ayrim vaziyatlarda bunday shaxslarning ataylab tanlanishi korrupsiyaviy manfaatdorlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ikkinchi muhim muammo qarzdor va kafil o'rtasidagi affillanganlik munosabatlarining yashirilishi hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda bunday ma'lumotlarni kreditorga oshkor etish majburiyatining mavjud emasligi shartnoma ishtirokchilarining teng axborotga ega bo'lish prinsipini cheklaydi. Natijada kreditor qaror qabul qilishda haqiqiy tavakkalchilik darajasini baholay olmaydi.

Shuningdek, ayrim hollarda kafillik shartnomalari soxta yoki noto'liq hujjatlar asosida rasmiylashtirilishi ham kuzatiladi. Mazkur holat fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ishonchni kamaytirib, keyinchalik sud nizolarining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Bank kafolatlari berish jarayonidagi xavflar. Tahlillar bank kafolatlarini berish jarayonida ham korrupsiyaviy xavf omillari mavjudligini ko'rsatdi.

Birinchidan, kafolat berish to'g'risidagi qaror ayrim hollarda manfaatdor mansabdor shaxslarning ta'siri ostida qabul qilinishi mumkin.

Ikkinchidan, ichki komplayens nazoratining yetarli darajada ishlamasligi kreditga layoqatsiz mijozlarga asossiz ravishda kafolat berilishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Uchinchidan, ayrim hollarda kafolatlar soxta yoki ishonchsiz hujjatlarga asoslanib rasmiylashtirilishi kuzatiladi. Bu esa nafaqat bank tavakkalchiligini, balki butun moliya tizimi barqarorligini ham izdan chiqarishi mumkin.

Korrupsiyaviy risklarning tasnifi. Tadqiqot natijasida majburiyatlarni ta'minlash usullarida uchraydigan korrupsiyaviy risklarni quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkinligi asoslandi:

1. Institutsional risklar – nazorat mexanizmlarining zaifligi, ichki audit va komplayens tizimlarining yetarli emasligi, vakolatlarning haddan tashqari markazlashuvi bilan bog'liq xavflar.

2. Axborot risklari – muhim ma'lumotlarni yashirish, noto'g'ri axborot taqdim etish hamda elektron axborot bazalarining o'zaro integratsiyasi yetarli emasligi bilan bog'liq xavflar.

3. Baholash risklari – garov predmeti qiymatini sun'iy ravishda oshirish yoki kamaytirish, manfaatdor baholovchilarni jalb qilish hamda mustaqil ekspertiza mexanizmlarining zaifligi bilan bog'liq xavflar.

4. Manfaatlarga to'qnashuvi bilan bog'liq risklar – affillangan shaxslarning ishtiroki, qaror qabul qiluvchi shaxslarning shaxsiy manfaatdorligi hamda korrupsion kelishuvlar yuzaga kelishi bilan bog'liq xavflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur risklar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ulardan birining mavjudligi boshqalarining ham yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu sababli ularni bartaraf etish faqat alohida choralar bilan emas, balki fuqarolik qonunchiligi, komplayens nazorati, elektron boshqaruv va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni yagona tizim sifatida takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim

**Muhokama.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash institutlari fuqarolik muomalasining barqarorligini ta'minlashda muhim huquqiy vosita bo'lishiga qaramay, ularni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan korrupsiyaviy risklar mazkur institutlarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytirmoqda. Ayniqsa, garov predmetini baholash, kafillik shartnomalarida affillangan shaxslar ishtirokini yashirish, bank kafolatlarini berishda manfaatlarga to'qnashuvi hamda ichki nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur natijalar V.V.Vitryanskiyning garov huquqining oshkoraligi va kreditorlar tengligi haqidagi nazariy qarashlarini tasdiqlaydi. Olim garov huquqi samaradorligining asosiy sharti sifatida garov predmetiga oid ma'lumotlarning to'liq va o'z vaqtida oshkor qilinishini e'tirof etgan. Tadqiqot davomida aniqlangan garov predmeti haqidagi ma'lumotlarni yashirish holatlari ushbu ilmiy qarashning amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Tadqiqot natijalari.** E.A.Suxanov tomonidan ilgari surilgan kafillik institutining iqtisodiy samaradorligi kafilning haqiqiy moliyaviy barqarorligiga bog‘liq degan fikrni ham tasdiqlaydi. Amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy imkoniyati yetarli bo‘lmagan shaxslarni kafil sifatida jalb qilish ko‘pincha kreditor manfaatlarining buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa kafillik institutining himoya funksiyasini sezilarli darajada pasaytiradi.

Grant Gilmore tomonidan ishlab chiqilgan elektron garov reyestrlari konsepsiyasi ham tadqiqot natijalari bilan uyg‘unlashadi. AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, barcha ta‘minot huquqlarining yagona elektron bazada ro‘yxatga olinishi bir mol-mulkning bir necha marta garovga qo‘yilishi, ma‘lumotlarni yashirish va boshqa suiiste‘molliklarning oldini olishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda Garov reyestri faoliyat yuritayotgan bo‘lsada, tadqiqot natijalari ushbu tizimni funksional jihatdan yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy tahlili. Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlarda korrupsiyaviy risklarni kamaytirish faqat jinoiy javobgarlik choralarini kuchaytirish bilan emas, balki fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali ham amalga oshirilmoqda.

Germaniya tajribasida ipoteka va ko‘chmas mulk garoviga oid barcha ma‘lumotlarning yer reyestrda majburiy qayd etilishi huquqiy aniqlikni ta‘minlaydi. Garov huquqining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kreditorlarning ustuvorlik huquqini aniq belgilash bilan bir qatorda, korrupsiyaviy kelishuvlar sodir etilishi ehtimolini ham kamaytiradi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida Uniform Commercial Code (UCC)ning 9-moddasi asosida barcha ta‘minot huquqlari yagona elektron tizim orqali ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ushbu tizimning muhim afzalligi ma‘lumotlarning ochiqligi, kreditorlarning teng huquqliligini ta‘minlashi va elektron nazorat mexanizmlarining yuqori darajada rivojlanganligidir.

Singapur tajribasi alohida e‘tiborga loyiq. Mazkur mamlakatda banklar va boshqa moliya institutlarida komplayens nazorati korporativ boshqaruvning ajralmas elementi hisoblanadi. Kredit qo‘mitalari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish, yirik moliyaviy operatsiyalarni korrupsiyaviy risklar nuqtai nazaridan oldindan baholash hamda ichki audit mexanizmlarining muntazam faoliyat yuritishi korrupsiyaviy xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Qozog‘iston Respublikasida esa elektron garov reyestri, notarial tasdiqlash hamda davlat ishtirokidagi yirik bitimlar yuzasidan korrupsiyaga qarshi ekspertiza elementlarining joriy etilgani ta‘minot munosabatlarida shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ta‘minot institutlarida korrupsiyaviy risklarni kamaytirishning eng samarali vositalari quyidagilar hisoblanadi:

- elektron reyestrlarning to‘liq ishlashi;
- komplayens nazoratining majburiyligi;
- manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish;
- mustaqil baholash institutining faoliyatini kuchaytirish;
- raqamli monitoring tizimlarini joriy etish.

Milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurati. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash institutlari yetarlicha tartibga solingan bo‘lsada, ularni korrupsiyaviy risklarni boshqarish mexanizmlari bilan integratsiyalash masalasi hali to‘liq shakllanmagan.

Xususan, amaldagi Fuqarolik kodeksida ta‘minot bitimlarini tuzishda korrupsiyaviy risklarni baholash majburiyati nazarda tutilmagan. Shuningdek, kafillik shartnomalarida qarzdor va kafil o‘rtasidagi affillanganlik munosabatlarini oshkor etish talabi mavjud emas. Garov predmetini baholash hisobotlarining elektron reyestrda saqlanishi ham majburiy tartibda belgilanmagan.

Tadqiqot natijalari ushbu bo‘shliqlar korrupsiyaviy xavflarning yuzaga kelishiga huquqiy zamin yaratishini ko‘rsatdi. Shu bois, fuqarolik qonunchiligini korrupsiyaga qarshi qonunchilik bilan uyg‘unlashtirish, komplayens nazoratini majburiy element sifatida joriy etish hamda raqamli monitoring mexanizmlarini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash institutlari ilk bor korrupsiyaviy risklarni boshqarish nuqtai nazaridan kompleks ravishda tahlil qilindi. Garov, kafillik va kafolat institutlari doirasida korrupsiyaviy xavflarning tasnifi ishlab chiqildi hamda ularni kamaytirishga qaratilgan fuqarolik-huquqiy mexanizmlar taklif etildi.

Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari Fuqarolik kodeksi, “Garov reyestri to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlarni takomillashtirish, davlat ishtirokidagi korxonalarda komplayens tizimini rivojlantirish, banklar va boshqa kredit tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy risklarni boshqarish bo‘yicha ichki mexanizmlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** O‘tkazilgan tadqiqot natijalari majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash institutlari fuqarolik muomalasining barqarorligini ta‘minlashda muhim huquqiy vosita ekanligini, biroq ularni amalga oshirish jarayonida korrupsiyaviy risklarning mavjudligi mazkur institutlarning samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, garov predmetini baholash, kafillik shartnomalarida affillangan shaxslarning ishtirokini yashirish, bank kafolatlarini rasmiylashtirishdagi manfaatlar to‘qnashuvi hamda ichki nazorat tizimlarining yetarli

darajada rivojlanmaganligi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda huquqiy noaniqlik va moliyaviy tavakkalchiliklarni kuchaytirmoqda.

Qiyosiy-huquqiy tahlil Germaniya, AQSh, Singapur va Qozog‘iston tajribasida korrupsiyaviy risklarni kamaytirishning samarali mexanizmlari shakllanganligini ko‘rsatdi. Mazkur davlatlarda elektron garov reyestrlari, komplayens nazorati, manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish, mustaqil baholash institutlari va raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi ta‘minot bitimlarining shaffofligini oshirib, kreditorlar huquqlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash institutlarining huquqiy asoslari yetarli darajada shakllangan bo‘lsada, ularni korrupsiyaviy risklarni boshqarish tizimi bilan uyg‘unlashtirish zarurati mavjud. Shu munosabat bilan fuqarolik qonunchiligini korrupsiyaga qarshi qonunchilik bilan integratsiya qilish, komplayens nazoratini kuchaytirish va ta‘minot bitimlarini raqamlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash institutlari ilk bor korrupsiyaviy risklarni boshqarish nuqtai nazaridan kompleks fuqarolik-huquqiy tahlil qilindi;

garov, kafillik va kafolat institutlariga xos korrupsiyaviy risklarning tizimli tasnifi ishlab chiqildi;

ta‘minot bitimlarida korrupsiyaviy risklarni majburiy baholashning fuqarolik-huquqiy modeli taklif etildi;

affillangan shaxslar to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishning fuqarolik-huquqiy mexanizmi asoslab berildi;

komplayens nazorati va elektron monitoringni ta‘minot institutlariga integratsiya qilishning huquqiy yo‘nalishlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari:

Fuqarolik kodeksini takomillashtirishda;

“Garov reyestri to‘g‘risida”gi Qonunni yangi normalar bilan boyitishda;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunga qo‘shimchalar kiritishda;

banklar va kredit tashkilotlarining ichki komplayens tizimini rivojlantirishda;

davlat ulushi mavjud yuridik shaxslarda korrupsiyaviy risklarni baholash metodikasini ishlab chiqishda;

oliy ta‘lim muassasalarida fuqarolik huquqi va komplayens fanlarini o‘qitishda ilmiy manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Muallifning qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflari. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini 259<sup>2</sup>-modda bilan to'ldirish va davlat ulushi mavjud yuridik shaxslar tuzadigan garov, kafillik hamda kafolat shartnomalari bo'yicha korrupsiyaviy risklarni majburiy baholash tartibini joriy etish lozim.

Ikkinchidan, Fuqarolik kodeksiga 292<sup>1</sup>-modda kiritilib, kafillik shartnomasi tuzilayotganda qarzdor va kafil o'rtasidagi affillanganlik munosabatlarini kreditorga yozma ravishda oshkor etish majburiyati belgilanishi zarur.

Uchinchidan, "Garov reyestri to'g'risida"gi Qonunga davlat xaridlari, investitsiya loyihalari hamda davlat kafolati ostidagi bitimlar bo'yicha garov predmetlarini baholash hisobotlarini elektron reyestrga joylashtirish majburiyatini nazarda tutuvchi norma kiritilishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda garov, kafillik va kafolat bilan bog'liq jarayonlarni korrupsiyaviy xavf darajasi yuqori bo'lgan yo'nalish sifatida e'tirof etish hamda ular bo'yicha majburiy ichki komplayens nazoratini joriy etish lozim.

Beshinchidan, banklar va boshqa kredit tashkilotlarida garov predmetini baholash, kafillik shartnomalarini rasmiylashtirish hamda bank kafolatlarini berish jarayonlarida sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalariga asoslangan elektron monitoring tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq barcha yirik bitimlar bo'yicha korrupsiyaviy risklarni baholash metodikasini ishlab chiqish hamda uni davlat ulushi mavjud korxonalar faoliyatida majburiy qo'llash zarur.

Yakuniy xulosa. Xulosa qilib aytganda, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash institutlarida korrupsiyaviy risklarni boshqarishning fuqarolik-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat kreditor va qarzdor manfaatlarini muvozanatini ta'minlaydi, balki fuqarolik muomalasi barqarorligini mustahkamlaydi, davlat aktivlarini ishonchli himoya qiladi hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy xulosalar va qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar O'zbekiston Respublikasida majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash institutlarini zamonaviy komplayens va korrupsiyaga qarshi boshqaruv tamoyillari asosida rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Витрянский В.В. Обеспечение исполнения обязательств. – Москва: Статут, 2018.

2. Gilmore, Grant. Security Interests in Personal Property. New York: Foundation Press, 2014.
3. Deep Shift. Technology Tipping Points and Societal Impact. World Economic Forum. Survey Report. September 2015. P. 24. //Савельев А.И Договорное право 2.0: «умные» контракты как начало конца классического договорного права /Вестник гражданского права.-2016, -N3.
4. Imomov N.F. Korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari. //Huquqiy tadqiqotlar jurnali. 2019., №9.
5. Okyulov O. (umumiy tahrir ostida). Fuqarolik huquqi. II jild: darslik / mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2020.
6. Raximov D.B. Majburiyatlar bajarilishini fuqarolik-huquqiy ta'minlash. Monografiya. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2021.
7. Суханов Е.А. Гражданское право. Том III. – Москва: Статут, 2021.
8. Rahmonqulov X.R. Majburiyat huquqi. – Toshkent: Adolat, 2019.
9. Ro'zinazarov Sh.N va boshqalar. Fuqarolik huquqida majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari. – Toshkent: TDYuU, 2018.
10. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. 1997.
11. O'zbekiston Respublikasining "Garov reestri to'g'risida"gi 2013-yil 23-oktyabrdagi O'RQ-356-son Qonuni.
12. O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi 2006-yil 4-oktyabrdagi O'RQ-58-son Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-580-son Qonuni.
14. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son Qonuni.
15. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi 2024-yil 5-iyundagi O'RQ-931-son Qonuni.